

"AK "UZTELEKOM" Farg'ona filiali va Toshloq tumani maktabgacha ta'lif bo'limi o'rtaqidagi Internet tarmog'idan foydalanish bo'yicha 14-yanvar 2022-yil kuni tuzilgan 341 -sonli shartnomaga

### YURIDIK XULOSA

Shartnoma miqdori: 12 600 000 (O'n ikki million olti yuz ming) so'm.

Toshloq tumani Yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti D.Abdullayeva yuqoridagi shartnoma yuzasidan xuquqiy ekspertiza o'tkazdim. Huquqiy ekspertiza O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan o'tkazildi.

Shartnomada ko'rsatilgan munosabatlarning amaldagi qonun normalari talablariga mos kelishi, shartnoma shartlarining qonun xujjatlari talablariga mos kelishi, shartnoma bo'yicha taraflarning javobgarligi me'yori va nizolarni xal etish tartibi qonun xujjatlari talablariga mos kelishi huquqiy ekspertizaning predmeti xisoblanadi.

Huquqiy ekspertiza o'tkazilayotgan vaqtida O'zbekiston Respublikasining amalda bo'lgan hamda yuridik xizmat uchun foydalanish mumkin bo'lgan barcha qonun xujjatlari o'r ganib chiqildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

Shartnoma ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Yuqoridagilarga asosan, mazkur shartnoma qonun xujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Toshloq tumani Yuridik xizmat  
markazi bosh yuristkonsulti:



D.Abdullayeva